

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11500470>

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NEOLOGIZMLAR VA ULARNING O'RGANILISHI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

**Tuxtayeva Gulnora Ulug'bek qizi**

Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi

[gulnoratuxtaeva11@gmail.com](mailto:gulnoratuxtaeva11@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ma'lum bir davlat boshqa davlatdan hududiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan ajratib turadi. Ammo til shunday kuchki, u bu chegaralarni hech qanday to'siqlarsiz oshib o'tishi, bir xalqdan boshqa xalqqa ko'chishi, o'zlashishi mumkin. Dunyoda birorta ham til yo'qki, faqatgina o'z ichki imkoniyatlari bilan boyigan bo'lsa. Til yangi so'zlarning yasalishi va bir tildan boshqa tilga kirib kelishi natijasida boyiydi. Toki insoniyat taraqqiyot tomon dadil qadam tashlar ekan, bu qadamlar til taraqqiyotiga-da o'z ta'sirini o'tkazmay qo'yamaydi. Ayniqsa, bugungi tez sur'atlarda texnika va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan zamonda bu jarayon bir necha barobarga tezlashmoqda. Maqolada yuqorida ta'kidlangan tilning boyliklaridan biri sanalgan neologizmlar haqida atroflicha fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** neologizm, insoniyat taraqqiyoti, ijtimoiy tarmoq, axborot texnologiyalari asri, globallashuv.

## SOME REMARKS ON NEOLOGISMS AND THEIR STUDY IN UZBEK LINGUISTICS

### ABSTRACT

*A certain country differs from another country in territorial, political-economic, and cultural aspects. But language is such a force that can easily cross these boundaries, move from one nation to another and be adopted. There is not a single language in the world that would be enriched only by its internal capabilities. The language is enriched as a result of the formation of new words and the entry into use of words from one language into another. While humanity boldly steps towards development, these steps will not remain without trace in the development of language. This process is especially accelerated multiple times in today's time of rapid development of technologies and information technology.*

*The article examines in detail neologisms, which are considered one of the affluence of the above-mentioned language.*

**Key words:** neologism, social network, information technology age, globalization.

## KIRISH

“Neologizm” atamasi ilk bor 1772-yilda ingliz tiliga fransuzcha *neologisme* leksemasi asosida qo‘llanilgan. Bu fransuzcha leksemaning kelib chiqish tarixi esa yunon tili (yunoncha “neos” – yangi, “logos” – so‘z) asosida kelib chiqqan[1]. Jahon tilshunoslari tomonidan neologizm – keng ma‘noda, o‘zbek tilshunosligida esa neologizm ko‘p o‘rinlarda yangi leksema atamasining sinonimi o‘laroq Leksikologiya bo‘limining kichik tarmog‘i sifatida tadqiq etiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek tilshunosligida leksikologiya bo‘limi bo‘yicha tadqiqotlar I.Rasulov, A.Shomaqsudov, R.Qo‘ng‘urov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, keyinchalik M.Yo‘ldoshev, S.Karimov, R.Sayfullayevalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

## NATIJALAR

Yuqorida biz sanab o‘tgan tilshunos olimlarning leksikologiyaga oid tadqiqotlarida neologizm haqida ta‘riflar keltirib o‘tilgan. Keltirilgan ta‘riflarning aksariyati bir xil ma‘noga ega:

**Shavkat Rahmatullayev ta‘rifi:** Yangilik bo‘yog‘i bor leksemaga neologizm deyiladi[2].

**Ra‘no Sayfullayeva ta‘rifi:** Yangi leksika – tilda yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘i sezilib turgan leksemalardir. Ular ilmiy terminologiyada neologizmlar ham deb yuritiladi[3].

**Nosirjon Uluqov ta‘rifi:** Tilda narsa, tushunchalarni ifodalash uchun yangi hosil qilingan, boshqa tillardan yangi kirib kelgan, yangilik bo‘yog‘i sezilib turgan, qo‘llanish xususiyatiga ko‘ra nafaol bo‘lgan so‘z va birikmalar neologizmlar deyiladi[4].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, neologizmlar haqida qoida bir xil, tadqiqot obyekti turli zamonda turlichadir.

## MUHOKAMA

Neologizmlar hamma zamon tilshunosligida mavjud bo‘lgan, ammo kam tadqiq etilgan tarmog‘i, leksikologiya bo‘limining kichik bo‘lagidir. Bu tushunchaga turli zamon tilshunoslari turli ta‘riflarni berishgan, lekin shunga qaramay, tadqiqotlar obyekti bir, subyekti esa har zamonda har xil ko‘rinishda bo‘lgan. Bunga sabab, makon va zamonning o‘zgarishi ta‘sirida neologizmlarning juda tez sur‘atlarda eskirishi, yo‘qolishi yoxud umummilliy tilga singib ketishidir. Bu hodisani o‘zbek tilshunosligining yirik namoyondalaridan biri hisoblanmish tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev neologizmning o‘ta nisbiy tushuncha ekanligi bilan izohlaydi. Neologizm doimiy ravishda tadqiq etilishga muhtoj. Vaqt o‘tgani sayin neologizmlar yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotgani kabi, mavzu yuzasidan keltirilgan misollar ham

o'zining yangilik bo'yog'ini yo'qota boradi. Ma'lum vaqtda tadqiq qilingan neologizmlar xususidagi tadqiqot materiallari borgan sari bir leksemaning leksik-semantik xususiyati, kelib chiqishi hamda taraqqiy etishiga oid qarashlardan iborat bo'lib qoladi. Masalan, tilshunos olim Hasanxon Jamolxonov ekstralingvistik omillarni hozirgi o'zbek tili taraqqiyotini belgilovchi ikki omilning biri sifatida ko'rsatar ekan, bunga quyidagidek izoh beradi:

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi o'zbek tili leksikasiga ham ta'sir o'tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushuncha nomlari (*partkom, raykom, obkom, sovxoz, oblast* kabi so'zlar) iste'moldan chiqib, o'zbek tili lug'at boyligining tarixiy qatlamiga o'tib qoldi, ularning o'rnida hozirgi mustaqil O'zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so'z va atamalar (*kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes* kabilar) paydo bo'ldi, *hokim, hokimiyat, viloyat, tuman* kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi ma'no qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so'zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o'tib qoldi[5].

Tilshunos olim eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o'tgan leksemalar sirasida *kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes* kabi leksemalarni sanab o'tadi. Hozirgi kunda bu leksemalar umummilliy til qatlamidan leksemalar sifatida umummilliy til iste'molida qo'llanilib kelinmoqda. Demak, hozirgi kun nuqtayi nazari bilan tadqiq etiladigan neologizmlar ham yaqin 5-10 yil ichida, balki bundan-da qisqa vaqtda umummilliy til iste'molidagi leksemalar tarkibiga kirishi, yoki eskirishi, hattoki, til iste'molidan chiqishi ham mumkin. Tilning lug'at qatlamidan o'rin olmagan, yoki o'rin olib ulgurmagan nutq birligi esa okkazionalizm deyiladi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida neologizmlar xususida olib borilgan tadqiqotlar turli zamonda turlichadir. Neologizmlarning yangi so'z, yangi leksema, yangi termin, o'z hamda o'zlashma qatlam so'zlari kabi ko'rinishlari mavjud. Tilshunoslikda o'z qatlamda shakllangan leksemalar yangi so'z yasalishi, o'zlashma qatlam leksemalari esa neologizmlar sifatida o'rganiladi va shu ko'rinishda tushuniladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. <https://en.wikipedia.org/wiki/Neologism>
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. “Universitet” nashriyoti. Toshkent. 2006-yil. 92-bet.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2005-yil. 142-bet.
4. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. “Barkamol fayz media” nashriyoti. Toshkent. 2016-yil. 118-bet.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Talqin” nashriyoti. Toshkent. 2005. 7-bet.